
Rishtonda qishloq xo'jaligi xodimlari kuni keng nishonlandi

Mamlakatimizda har yili dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi qishloq xo'jaligi xodimlari kuni sifatida keng nishonlanadi. Sana munosabati bilan Rishton tumanida Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimi, sektor rahbarlari hamda tumanimiz qishloq xo'jaligi sohasi ilg'or vakillari, nuroniylar ishtirok etdilar.

Bayram tantanalarida tuman hokimi Bahodir Xoliqov so'zga chiqib, joriy yilda tumanda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish ko'rsatkichlari, sohani innovasion rivojlantirish, klaster usulini amaliyotga keng tadbiq etish, hududlarning eksport imkoniyatlarini oshirish borasida qo'lga kiritilgan yutuqlarga to'xtalib, barchani bayram bilan muborakbod etdi.

Bayram tantanalarida qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnati yana bir bor e'tirof etildi. Bir guruh tumandoshlarimizga ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Bir piyola choy ustida tashkil etilgan tadbirda san'atkorlar ijrosidagi bayram dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-12-11 14:07:42